



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI  
STATISTIKA AGENTLIGI**

**SAMARQAND VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASINING BUYRUG‘I**

2024- yil “13” iyun 49 - son

“O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida” 2017-yil 11-sentabrdagi O‘RQ-445-son Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-martdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-114-son qarori va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 3-maydagi “Aholi va tadbirkorlik subyektlariga ko‘rsatiladigan davlat xizmatlari to‘g‘risida ma‘lumot berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 179-son qaroriga muvofiq, Statistika organlarida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ish yuritishni yanada takomillashtirish O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining 2024-yil 12-iyundagi 140-sonli buyrug‘i ijrosini ta‘minlash maqsadida,

**BUYURAMAN:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining 2024-yil 12-iyundagi 140-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi tizimida davlat xizmatlarini ko‘rsatishda idoraviy aloqa markazlari (ishonch telefonlari) faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi Nizom (keyingi o‘rinlarda Nizom deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.
2. Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash va ijro intizomi nazorati bo‘limi (F. Sattarov), bir hafta muddatda ushbu Nizomni statistika organlarining barsha xodimlariga tanishtirilishini, jismoniy va yuridik shaxslarning ishonch telefonlari orqali kelib tushgan murojaatlarini qabul qilish va ko‘rib chiqish bo‘yicha barcha ish yuritish hujjatlarini qat‘iy ravishda, mazkur nizom talablari asosida yuritilishini ta‘minlasin.
3. Boshqarma o‘rinbosarlari (T.Sidikov, M.Salimov) boshqarma, tuman va shahar statistika bo‘limlari tomonidan Nizom talablarini to‘liq va puxta ijrosini ta‘minlanishi yuzasidan qat‘iy nazorat o‘gnatsinlar.
4. Mazkur Nizom tasdiqlanishi munosabati bilan, Samarqand viloyati statistika boshqarmasining 2021-yil 16-apreldagi 26-son buyrug‘i o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.
5. Ushbu buyruq ijrosini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

Boshqarma boshlig‘i

Sh. Abdiyev